

MILLIY QADRIYATLAR VA O'YINLAR ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MAZMUNI

*Ergasheva Umrinisso Komilovna, Rahmonova Iroda Samijonovna University of
Business and Science oliyta'lim muassasasi Maktabgacha- boshlang'ich ta'lim va
sport faoliyati kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar vao'uinlar
uyg'unligida ekologik tarbiya berishning o'ziga xos tomonlari haqida so'z
yuritiladi. Tarbiyalanuvchilarninig o'zlari o'ylab topgan o'yin va borliq haqidagi
taasurotlari, bilimlar va unga munosabatlar aks ettiradigan ijodiy o'yinlar
shakillaridan na'munalar keltirilib metodik hamda amaliy ahamiyati izohlangan.

Kalit so'zlar: metodik strategiya, drammalashtirilgan o'yinlar, ekologik
tarbiya, milliy qadriyatlar.

NATIONAL VALUES AND THE CONTENT OF ECOLOGICAL EDUCATION THROUGH GAMES

Ergasheva Umrinisso Komilovna, Rahmonova Iroda Samijonovna,
teacher of the Department of Preschool and Primary Education and Sports
Activities, University of Business and Science

Annotation: The article discusses the unique aspects of providing
environmental education in preschool through the integration of national values
and games. Examples of creative play forms are presented, showcasing children's
self-devised games that reflect their impressions of reality, knowledge, and
attitudes. The methodological and practical significance of these forms are also
explained.

Keywords: methodological strategy, dramatized games, environmental
education, national values.

Kirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish sohasidagi
nazariy hamda amaliy tadqiqotlarga asoslanib, ilg'or xalqaro tajribalar hisobga
olingan holda ishlab chiqilgan "Yer sayyorasi — umumiy uyimiz" persal

dasturining IX bobi “MTTda ekologik ta’lim va tarbiya berishda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish” deb nomlanadi. Unda “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta’lim va tarbiyalash bo’yicha ta’lim-tarbiya faoliyatida o’yinlarning ahamiyati”, “Ekologik ta’lim va tarbiya berish shakllari”, “Ekologik ta’lim va tarbiya berish usullari” deb nomlangan uchta bo’lim mavjud. Oxirgisi bevosita amaliy metodik xarakterga ega. Bobning birinchi bo’limida ekologik tarbiyada o’yinlarning o’rni va ahamiyati tavsiflangan.

“O’yin — bu bolani o’z-o’zi va atrofidagi dunyoni o’rganishga undaydigan tabiiy usul hisoblanadi. O’yin shaxsiyatni boyitadi va rivojlantiradi, shuning uchun u ekologik ta’limda keng qo’llaniladi.”

Tahlil va natijalar

Ko’rib o’tilgan manba va ma’lumotlardan ma’lum bo’lishicha, turli mamlakatlarda milliy qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berish quyidagi omillarga borib taqaladi.

Tabiatning asosi bo’lgan yerimizni asrash davlat va jamiyat rivojining muhim sharti ekanligini ta’kidlash mazkur maqol beradigan ekologik saboqdir.

4. Chumchuqni o’ldirsang, qurt ko’payadi.

Ifodalangan ma’noga ko’ra, bu yerda ikki jihat mavjud: birinchisi — qushlarga mehribon va shafqatli bo’lish; ikkinchisi — ularga nisbatan shafqatsizlik oqibatida yomonlik kelishi, ya’ni bu holat oxir-oqibat insonning o’ziga zarar yetkazishi uqtiriladi. Demak, tabiatdagi muvozanatning buzilishi katta oqibatlarga olib kelishini ko’rsatadi. Har bir jonivorning ekotizimda o’z roli mavjud.

Ekologik saboq: hayvonlarni himoya qilish va ularning tabiatga foydasini qadrlashga chaqiradi.

5. Ona yerga oqib tushgan har bir tomchi suv — farovonlik garovi.

Suv tanqisligi va suv resurslari kamayib borayotgan hozirgi davrda ushbu maqolning ahamiyati juda katta. Bolalarni bog’cha yoshidan boshlab suvni tejab ishlatishga, har bir tomchisini qadrlashga, hatto suv mo’l bo’lsa ham undan to’g’ri foydalanishga o’rgatadi.

Ekologik saboq: suvni tejash, isrof qilmaslik va undan oqilona foydalanish g'oyasi tarbiyalanadi.

Keyingi asrlarda paydo bo'lgan "Daryo bo'yida o'sgan daraxt suvsiz qolmaydi", "Tabiatni asra, u senga jon bag'ishlaydi", "Suv — zar, tuproq — oltin", "Toqqa yog'sa, cho'l obod, cho'lga yog'sa, el obod", "Yoz mevasi — qish xazinasasi", "Qarg'a qag'illasa qishni chaqirar, g'oz g'ag'alasa — yozni", "Tog' havosi — dard davosi" kabi ko'plab maqollar ekologik tarbiyani milliy qadriyatlar asosida boyituvchi mazmunli material hisoblanadi.

Qadriyatlar haqida alohida qo'llanma yozgan M. Farmonova kitobida keltirilganidek, "...maqollar xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq madaniy qadriyatlarning asrlar davomida an'anaviy tarzda ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan ulkan manbayidir".

Milliy qadriyatlar yorqin aks etgan o'zbek xalq ertaklari ham bolalarni atrof-muhitga mas'uliyat va mehr ruhida tarbiyalashda eng ta'sirli vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklar tasnifida hayvonlar haqidagi turkum alohida ahamiyat kasb etadi. Folklorshunos Oxunjon Safarovga ko'ra, mazkur tasnifdagi ertaklar uch turga bo'linadi:

1. etiologik ertaklar;
2. sof hayvonlar haqidagi ertaklar;
3. majoziy (allegorik) ertaklar.

Nisbatan qadimiy hisoblangan etiologik ertaklar hayvonlar, qushlar va hasharotlarni kuzatish, ularni bir-biridan farqlash hamda jonzotlar turlarining o'ziga xos belgi-xususiyatlarini bilish ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Tirikchiligi ovchilik bo'lgan ajdodlarimiz ushbu ertaklar orqali hayvonlar, parrandalar va hasharotlarning shakli, ko'rinishi, rangi hamda xarakteri haqida ma'lumot berganlar. Shu orqali farzandlariga tushuncha berish bilan birga ekologik qarashlarni ham shakllantirganlar. Bunday ertaklar hozirgi kunda ham maktabgacha yoshdagi bolalarga jonzotlar haqida bilim berish, ularni tanishtirish va eng muhimi, ularga mehr uyg'otishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar axloqiy tarbiya bilan bir qatorda insoniyat qo'shnisi bo'lgan hayvonlarni tanishtirish, ularning fe'l-atvorini tushuntirish hamda bu jonivorlarga mehr uyg'otishda ham katta ahamiyatga ega. "O'zbek xalq ertaklari" to'plamidan bu kabi namunalarni ko'plab keltirish mumkin.

Majoziy (allegorik) ertaklar inson obrazlari, ularning xatti-harakati va xarakterini hayvonlar vositasida tasvirlaydi hamda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Yetakchi motiv axloqiy tarbiya bo'lsa-da, bosh qahramonlari jonivorlar bo'lgani sababli bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda bunday ertaklarning imkoniyati katta.

Yuqorida eslatilgan ertaklar to'plamidan olingan ayrim namunalarning ekologik tarbiya imkoniyatini ko'rib chiqamiz.

"Qaldirg'och va odamlar" ertagida qaldirg'och oilasi in qurgan daraxtning odamlar tomonidan kesilishi tasvirlanadi. Ona qushning farzandlarini yo'qotishi uning iztiroblariga sabab bo'ladi. Ammo oxirida odamlar o'z xatosini anglab, daraxt ekish orqali tabiatni asrashga kirishadilar.

Bolalarga beriladigan saboq: ertak bolalarda tabiatni asrash, qushlar va o'simliklarga g'amxo'rlik qilish g'oyasini shakllantiradi. Shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi. Xalqimizga xos yuksak qadriyatlar — har qanday jonzotga mehribonlik, ular oldidagi mas'uliyat, tabiatga nisbatan o'z xatosini tan olish va uni bartaraf etish — qisqa va lo'nda ifodalangan.

"Mo'min daraxt" ertagida daraxt har doim odamlar va hayvonlarga xizmat qiladi: soyasi bilan himoya qiladi, mevasi bilan oziqlantiradi. Ammo odamlar uni beparvo holda kesib tashlaydilar. Daraxt esa oxirgi lahzagacha ham ularning ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Beriladigan ekologik saboq: tabiatni asrash, resurslarni tejash va daraxtlarni himoya qilish g'oyasini o'rgatadi. Daraxtlar faqat resurs manbai emas, balki hayotning ajralmas qismi ekanligi ko'rsatiladi. Bunda milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik ham tanqid qilinadi.

“Suvning g‘azabi” ertagida suv manbasini ifloslantirgan bir qishloq aholisi suv toshqiniga duch keladi. Suv o‘zining tozaligini himoya qilish uchun g‘azablanib, odamlarni jazolaydi. Oxir-oqibat odamlar suvni ifloslantirish zararli ekanligini anglaydilar.

Ekologik saboq: suvni muhofaza qilish va unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish zarurligi o‘rgatiladi. Suv qadim zamonlardan buyon nihoyatda e‘zozlangan. Bobo va momolarimiz avlodlarga suvga tuflamaslik, unga chiqindi tashlamaslik, undan foydalanishda isrof qilmaslikni tayinlaganlar va bunga qat’iy rioya qilishni talab qilganlar. Ko‘rinadiki, bizning xalqimizda suv alohida qadriyat sifatida qadrlangan. Suvni asrash har bir fuqaroning burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. *“Yer sayyorasi — umumiy uyimiz” ekologik ta’lim dasturi.* – Toshkent, 2020.
2. Farmonova M. *Qadriyatlar pedagogikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
- 3.Safarov O. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Safarov O. *O‘zbek xalq ertaklari va ularning tasnifi.* – Toshkent: Fan, 2007.
- 5.Ergasheva U. Maktabgacha ta’lim sohasida pedagog olimlarning milliy qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berishga oid qarashlari //MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 1.
- 6.Ergasheva U. “MA’NAVIY MA’RIFIY” ISHLAR BO ‘YICHA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI SIFATINI OSHIRISH //Молодые ученые. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 51-53.
- 7.Karimova V., To‘raqulova M. *Maktabgacha pedagogika.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
- 8.Nishonova Z., Alimuhamedov A. *Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
- 9.O‘zbek xalq ertaklari. 1–2 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

10. To'xtayeva X. *Ekologik ta'lim asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
11. Ergashev A., Ergashev T. *Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.